



O'QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO'NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMNING ROLI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlangich talim yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Turdiyeva Gavhar Safaraliyevna

E-mail: gavhart67@gmail.com

Tel raqam: 97-805-42-

Boshlangich talim nazariyasi kafedrası

Assistent o'qituvchisi

Umarova Dilafruz Anvarovna

E-mail: umarovadilaftuz@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning integratsiyalashgan dars jarayoni orqali o'quvchilarning nutqini ostirish haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga zamonaviy metodlardan unumli foydalanish o'rgatuvchi va o'rganuvchi uchun samarali usullardan foydalanilgan. Bundan tashqari zamonaviy ta'limning boshqa maqsadi integratsiya ta'limi orqali rivojlanishi e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil, zamonaviy, innovatsiya, integratsiya, fan, bog'liq, usul.

Abstract: This article discusses the development of students' speech through an integrated learning process. At the same time, the effective use of modern methods is used, which is effective for both the teacher and the learner. In addition, another goal of modern education is recognized as the development of integrated education.

Keywords: independent, modern, innovation, integration, science, related, method.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие речи учащихся посредством интегрированного процесса обучения. При этом эффективно используются современные методы, что выгодно как для преподавателя, так и для обучающегося. Кроме того, еще одной целью



современного образования признается развитие через интеграционное образование.

Ключевые слова: *независимый, современный, инновация, интеграция, наука, связанный, метод.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy maqsadi – har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, muammolarga ijodiy yondasha oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Bunday kompetensiyani shakllantirishda an'anaviy fanlararo chegaralarni bartaraf etuvchi, tizimli va kontekstual yondashuvga asoslangan integratsiyalashgan ta'lim muhim o'rin tutadi.

Asosiy qism

Integratsiyalashgan ta'lim – bu fanlararo bog'liqlik asosida bilimlarni yagona tizimda o'rgatishga yo'naltirilgan yondashuvdir. U o'quvchining olgan bilimlarini hayotiy holatlar bilan bog'lash, turli fanlar o'rtasidagi aloqalarni anglash, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Integratsiyalashgan ta'lim nafaqat bilim berishni, balki fikrlash madaniyatini shakllantirishni ham ko'zda tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan yondashuv orqali bilim berilgan o'quvchilar an'anaviy o'quvchilarga qaraganda muammolarni hal qilishda mustaqil fikrlashga ko'proq moyil bo'ladi. Bunda ikki o'quvchini o'zaro taqqoslash orqali aniqlasa ham bo'ladi. Masalan, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan o'tkazilgan monitoringda integratsiyalashgan metodlar qo'llanilgan sinflarda mustaqil ishlash, qaror qabul qilish va fikr bildirish ko'nikmalari 18% ga yuqori natija bergan. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. Kattalar bilan qanday muloqotda bo'lishi va qanday suhbatlar qurishi rivojlantiradi. Muhimi, didaktik o'yinlar jarayonida bolada o'z kuchiga ishonch shakllanadi, erkin harakat qilishga, o'z fikrlarini erkin bayon qilishga o'rganadi, mustaqil fikrlar bildirib boshlaydi. Masalan, "Suratdagi xatoni top" o'yinida bola suratni mustaqil kuzatadi. Xuddi shuningdek, "Bo'lishi mumkin



emas”, “Matndagi xatoni top” o‘yinlari, rebus, boshqotirma kabilar o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi va mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Mustaqil fikrlash – bu o‘quvchining mustaqil ravishda axborotni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, qaror qabul qilish va o‘z fikrini asoslab bera olish qobiliyatidir. Masalan, dars jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga "Bahor" faslining rasmini ko‘rsatib bu qaysi fasl nimalar tasvirlangan deb so‘rash orqali nutqini ostirish ham maqsadga muvofiq. O‘quvchilar o‘zi ko‘rgan narsalarini mustaqil ayta olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu ko‘nikmalar zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarurdir. Integratsiyalashgan ta’lim o‘quvchini turli fanlar doirasida fikr yuritishga, o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlashga, real hayotdagi muammolarga fanlararo yondashuv orqali yechim topishga o‘rgatadi. Masalan tabiatshunoslik, o‘qish, husnixat va matematika fanlari nutq o‘stirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. I.G.Pestolotssi ta’kidlaganidek ".....aql notinch sezgili idrok qilishdan aniq tushunchalarga ko‘tariladigan manbadir". Bu tushunchalarni anglash esa nutq san'ati bilan birga yuradi. Erkin tabiat tasvirlari bolada mantiq bilan birga ta’sirchanlikni ham rivojlantiradi. Har bir darsda nutq o‘stirish masalalari hal qilinadi. Bunda o‘rganilayotgan materialning o‘ziga xosligi va nutq o‘stirish masalasini tanlashning maqsadga muvofiqligi hisobga olinadi. O‘quvchilar bunday darslarni juda yaxshi ko‘radilar. Ular ko‘p yangi kerakli tushunchalar beradi, tasavvurlarini tartibga soladi, o‘quvchilar boshqa darslarda olgan bilimlaridan foydalanishlari zarur bo‘lgan holatlarni yaratadi. Bunday holatda bolalar o‘rganilayotgan materialni yaxshiroq o‘zlashtiradilar. Bilimlar tizim holiga keladi va o‘quvchilar uchun juda zarur bo‘lib qoladi. O‘quvchilar ekologik muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va yechim taklif qilishda mustaqil fikr yuritish oladi. Yoki tarix va adabiyot fanlari orqali tarixiy voqealarning tahlili asosida badiiy tafakkurni shakllantiradi. Pedagog olim O. Jo‘raevaning fikricha, “integratsiyalashgan ta’lim modeli o‘quvchilarda tahliliy fikrlashni, muloqot madaniyatini va muammoni ko‘ra olish qobiliyatini shakllantiradi” (Jo‘raeva O., 2022). Shuningdek, D. Deweyning konstruktivistik ta’lim nazariyasida ta’kidlanishicha, o‘quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki o‘z faoliyati davomida, amaliyot orqali egallashi zarur. Bu esa bevosita integratsiyalashgan yondashuv bilan



uyg'unlashadi deb ta'kidlaydilar. Shu bilan birga Sharq allomalarimizning fikrlari ham o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Masalan, Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati cheksizligi haqida shunday deydi: "Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman..." Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida mudarrisning "so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin... Bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan, osonlik bilan o'zlashtira olsin" deydi. Ikki kishining suhbatida bir birini bezdirib qo'ymasdan muloqot qilishi zarur. Ravon nutq yaxshi muloqot Insonning yuzida. Bu vatandoshimizning fikrlari orqali falsafa fani bilan birgalikda tarix va boshqa fanlarni bog'lashi mumkin. O'z o'zidan O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish qachondan boshlanadi degan savol tug'ilishi mumkin. Bunda o'quvchilar qolaversa, yosh bolalar o'z tengdoshlari va o'zidan katta bo'lgan insonlar bilan qilingan suhbatlar natijasida har xil savollar tug'ilishi mumkin. Masalan, Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabga kelganda o'qituvchidan har xil savollar so'raydi. "Ustoz nega quyosh kunduzi chiqib kechasi chiqmaydi" "nega oy biz yurganimizda qo'shilib harakatlanadi" nega tishlarimiz sinib tushadi" kabi savollarni beradi. Bu jarayonda o'qituvchi erinmasdan javob bersa o'quvchilarning mustaqil fikrlashi yanada kengayadi. Shuningdek, bu kabi savollarga o'qituvchi javob bermasa o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi pasayadi. Integratsiyalashgan dars jarayonida keng imkoniyatlar mavjud. Bu jarayon orqali o'quvchilar, mustaqil fikrlashga, kreativlikka, bilim samaradorligini oshirishga, nutqi yaxshi rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Xulosa

Integratsiyalashgan ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. U o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Turli fanlararo aloqalarni o'zaro



uyg'unlashtirish orqali ta'lim jarayoni yanada mazmunli, mantiqan to'g'rilangan va hayotga yaqin bo'ladi. Bu esa o'quvchini tayyor bilim emas, balki bilimni mustaqil izlash, qayta ishlash va xulosa chiqarishga yo'naltiradi. Tadqiqotlar va amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, integratsiyalashgan ta'lim vositasida ta'lim olayotgan o'quvchilar aniq va mustaqil fikrlay oladi, muammolarga ijodiy yondashadi va hayotiy qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilishga tayyor bo'ladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvga asoslangan metodikalarni keng joriy etish dolzarb va zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'raeva O. *Integratsiyalashgan ta'lim orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish*. – Toshkent: O'qituvchi, 2022.
2. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TE Umarova,
3. Dilafruz Anvarovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403. SOLUTIONS 1.2 (2024): 23-25.
4. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.
5. Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O 'QUVCHILARNI IJTIMOIIY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49.
6. Yusupova D.X. *Pedagogik texnologiyalar va integratsiyalashgan yondashuvlar*. – Samarqand: SamDU, 2020.
7. Xodjayev A. *Ta'limda innovatsion texnologiyalar va ularning qo'llanilishi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.



8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish va ilm-fan sohasini rivojlantirishga oid” qarori. – 2020-yil 29-oktabr, PQ–4884-son.
9. Mavlonova R. *Pedagogik mahorat*. – Toshkent: TDPU, 2015.
10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. *Integratsiyalashgan ta’lim bo‘yicha metodik qo‘llanma*. – Toshkent, 2021.
11. R. Mavlyanova, N. Raxmanqulova "Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi innovatsiya va integratsiya" Toshkent "Voriz- nashriyot" 2013 O'quv qo'llanma.
12. Qodirova M. Bahodir qizi " O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish" maqolasi. "O'zbekiston 2030 strategiyasi inson salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari" jurnali